

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XORIJIY TILLAR FAKULTETI

INGLIZ TILSHUNOSLIGI kafedrası

KURS ISHI

**MAVZU: “O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida
uchraydigan hikmatli so'zlar va maqollar tarjimasi va tahlili”**

Bajardi:

Sh.B. Husanov

Tekshirdi:

N.P. Iskanova

KIRISH.....	3
I-BOB. TARJIMA- XALQLAR O’RTASIDAGI ALOQA VOSITASI....	8
1.1. Tarjimada muqobillik darajasi	8
1.2. Til o’rganishda badiiy asar tarjimasi	14
II-BOB. TARJIMADA MILLIY KOLORIT MASALALARI.....	21
2.1. O’tkir Hoshimov – buyuk o’zbek adibi.....	27
2.2. O’tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi “ asarida uchraydigan maqollar, hikmatli so’zlar tarjimasi va tahlili.....	33
2.3. Badiiy tarjima shakl va mazmun birligi me’yorini saqlash. O’tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi “ asarida qo’llanilgan hikmatli so’zlar , iboralar tarjimasida uchraydigan qiyinchiliklar.....	39
XULOSA	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	

KIRISH

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq maqkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan - avlodga o'tib o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi¹.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda, shuningdek mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda ma'naviy -ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, deb e'lon qilinib, bu borada ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonimizning mustaqillikka erishishi, ona tilimizni davlat tili maqomini olishi, yurtimizning xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarni mislsiz o'sishi, chet tilini o'rganishga qiziqishning kundan -kunga oshib borishi, O'zbekiston Respublikasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturining qabul qilinishi, olimlar va pedagoglar oldiga chet tilini o'qitish bo'yicha yangi darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar, dasturlar va boshqa didaktik materiallarni yaratishni taqozo etadi.

Mustaqilligimiz tufayli bizning mamlakatimizda millatlararo do'stlik va hamkorlik yanada rivoj topmoqda va mustahkamlanmoqda. Bu o'sish va o'zgarishlar madaniy ishlarda ham, jumladan badiiy adabiyotda ham o'z aksini topmoqda .Bunday sharoitda badiiy tarjimaning ahamiyati nihoyatda katta. Badiiy tarjima xalqlar o'rtasida do'stona aloqalarning o'rnatilishi va mustahkamlanishi, bir xalq vakillarining ikkinchi xalq vakillari ma'naviy boyliklari

¹ I.A.Karimov, O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavqsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kaqolatlari, T., 1997. 137-bet.

bilan tanishishlari, madaniyatlarning rivoj topishi va ulardagi millatlararo asoslarning mustahkamlanishi muhim o'rin egallaydi.

Hozirgi paytda boshqa qardosh mamlakatlardagi singari, bizning mamlakatimizda ham tarjima ishlari keng quloch yoygan holda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mamlakatimizda kattagina tarjimonlar guruhi yetishib chiqdiki, ular nafaqat rus va qardosh mamlakatlar qalam ahllari asarlarini, balki jahondagi barcha mamlakatlar adabiyoti namunalarini tarjima qilmoqdalar. Hozirgi kunda o'zbek kitobxonlari o'z o'tmish klassik hamda sobiq ittifoq davri qalam ustalari tomonidan yaratilgan asarlardan tashqari, rus va boshqa qardosh mamlakatlar xalqlari klassiklari A.N.Tolstoy, M.Sholoxov, M.Tursunzoda, shuningdek V.Shekspir, Gyote, Servantes, Gyugo, Svift, D.Defo, Voynich, M.Tvin kabi ko'pgina chet el yozuvchilari asarlaridan ham bahramand bo'lmoqdalar.

O'zbek adiblarining ko'pchilik asarlari ham talay chet el xalqlari tillariga tarjima qilindi va qilinmoqda. Dunyoda A.Navoiy, Bobur, Furqat, H.Olimjon, Asqad Muxtor kabi ko'pgina o'zbek yozuvchi va shoirlarining nomlari ma'lum va mashhur bo'lmagan mamlakatni topish qiyin. Bu badiiy so'z ustalarining o'qigan har bir boshqa xalq farzandi o'zbek xalqining o'tmish va hozirgi zamon hayoti haqida ochiq -oydin ma'lumotga ega bo'lmoqdalar.

"Tarjimon - deb yozadi A.Muxtor, - o'zida badiiy adabiyotni yaratuvchi ijodkorlik ma'suliyatini chuqur his etishi kerak, u o'zining siyosiy va adabiy bilimini, badiiy mahoratini oshirish ustida qunt bilan ishlashi zarur... Tarjimon uchun keng badiiy til savodxonligi kerak: yozuvchilik mahorati, obrazli fikrlay bilish, kuzatuvchanlik, turmushni chuqur bilish nihoyatda zarur" . Shundagina tarjimon ishiga chinakam ijodiy yondasha oladi. "Tarjima - bu hamisha ikki til qiyosiy stilistikasidir", - deydi E.G.Etkind², chunki badiiy tarjimaning vazifasi- o'z tilida

² Muxtor A.. Badiiy tarjima mahoratini egallaylik, "Sharq yulduzi", jurnali, 1952, №7, 120-121betlar

originalning stilistik sur'atini qayta yaratishdan iboratdir; originalning til formasini e'tibordan soqit qiladigan nazariya tarjimonni quolsizlantirib qo'yadi .

Tarjima nazariyasining stilistik masalalariga mansub bo'lgan leksik va frazeologik birliklar tarjimasi katta ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. So'zana ko'rki uning jimjimador gullari, shakl-shamoyilidan tashqari rang -barang tovlanuvchi ipaklarining latifligiga ham bog'liq bo'lganday, badiiy nafosati ham uning umumiy mazminidan tashqari bir neca obyektiv kriteriyalari qatori leksik va frazeologik birliklari sayqaliga ham bog'liqdir. Badiiy tarjima san'ati bu masalaga nozik did bilan yondashishni - so'zni so'z, iborani - ibora bilan emas, balki, ularning ma'no va ottenkalarini ifodalashni taqozo etadi.

Uslub yozuvchining o'zi, uning butun borlig'i, vujudi, yurak tepishi, badiiy mushohada shakli, uning ovozi demakdir. Binobarin, agar tarjimada muallifning uslubi to'g'ri aks ettirilmagan bo'lsa, bunday tarjimaning to'g'riligiga ishonib bo'lmaydi: unda tarjimon avtorning o'rniga o'zini qo'ygan bo'ladi.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar muqoyasasi shuni ko'rsatadiki, bir tildagi ma'lum tushunchalarni iqodalovchi ba'zi bir frazeologik birliklar ikkinchi tilda ekvivalent yoki muqobil frazeologik birliklarga ega bo'lishi, uchinchi tilda esa bunday iboralar umuman bo'lmasligi mumkin. Bu hol esa bevosita tarjimalarda shu tildagi mavjud iboralarning qo'llanmay qolib, originaldagi emotsional ekspressivlikning to'la ifodalanmasligiga sababchi bo'lmoqda.

Bizning nazarimizda, shu xil xarakterdagi ko'pchilik tekshirishlar natijalari ingliz va o'zbek tillari qiyosiy stilistikasini yaratish uchun manba to'plashning boshlanishi bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Tarjima nazariyasining stilistik masalalariga mansub bo'lgan leksik va frazeologik birliklarning, maqollarning tarjimasi katta ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Zamonaviy jamiyatning nutq faoliyatida maqollarning, hikmatli so'zlarning va iboralarning o'rne benihoya kattadir.

Maqollarning va hikmatli soʻz, iboralarning rivojlanish surʼatlari, uni insoniyat faoliyatining barcha jabhalarida oʻsib borayotgan taʼsiri ostida vujudga keladi.

Biz vositachi - ingliz tili orqali tarjima qilishni zaruriyat sifatida eʼtirof etamiz va ishimizda ham vositachi til materiallaridan zaruriyat taqozosi bilan foydalanamiz. Oʻz xulosalarimizni ingliz va oʻzbek tillarini qiyoslash natijasida chiqaramiz.

Stilistik tadqiqotlar bilan shugʻullangan koʻpgina tilshunoslar (jumladan, I.A.Galperin, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, I.V.Arnoldlarning va boshqalar) tomonidan eng dolzarb mavzu sifatida frazeologizmlar, maqollar, hikmatli soʻzlar masalasi eng dolzarb mavzu boʻlib kelgan. Oʻzbek tilshunosligida ayrim tadqiqotchilar (jumladan, M.Sadriddinova, M.Abdurahimov, A.Mamatov, M.Xudoyberganova va boshqalar) tomonidan frazeologizmlar masalasining baʼzi xususiyatlari qayd qilib oʻtilgan edi. Ular ushbu yoʻlda nutq birliklarining barcha vositalarini har tomonlama oʻrganib chiqishni koʻrsatib, aytib oʻtishgan. Biroq, bularning barchasi aynan oʻzbek tilida toʻla -toʻkis koʻrib chiqilmagan. Bizning izlanishlarimiz esa, frazeologizmlarni qoʻllashning ana shu oʻziga xos xususiyatlarini ochib berish, frazeologik birliklarni ingliz tilidan rus va oʻzbek tiliga qilingan tarjimalarni qiyoslagan holda, tillarning ichki taraqqiyoti qonuniyatlarini asosida shakllanish qoidalarini tarjima orqali ochib berishdan tashkil topgan.

Maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi - oʻzbek tilidagi maqollar, hikmatli soʻzlar va iboralarning ingliz tilidagi tarjimasining oʻziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun ishimizga Oʻtkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida uchraydigan maqollar, hikmatli soʻzlar va iboralarni asos qilib oldik va quyidagi vazifalar qoʻyildi:

-til oʻrganishda badiiy asar tarjimasi tahlil qilish;

-tilning leksik va frazeologik birliklarini ochish va oʻrganish;

-ingliz tilidagi frazeologik iboralarning morfologik qurilishlarini o'zbek tilidagi shakllari bilan qiyoslash;

-frazelogizmlarni tarjima qilish yo'llarini tahlil qilish va boshqalar. Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni o'rganib chiqish, frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga va o'zbek tilidan ingliz tiliga bo'lgan tarjimalarni o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilishga imkon beradi.

Ilmiy yangiligi. Kurs ishda frazeologik birliklarning har tomonlama tahlili ko'rib chiqiladi, uning stilistik belgilari ochib beriladi. Ilgari hech bir muallif tomonidan O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasida" asarida ishlatilgan frazeologizmlarning, maqollarning, hikmatli so'zlarning, ingliz tilida bo'lgan tarjimasini ko'rib chiqiladi va o'zbek va ingliz tillaridagi tarjimasi qiyoslaniladi, tarjimada uchraydigan qiyinchiliklar ochib beriladi.

Ushbu asarning tahlili, frazeologizmlarning adabiy tilning boshqa leksik til birliklaridan farqini va o'xshash tomonlarini aniqlash, frazeologik birliklarning tarjimalarda so'z va so'z birikmalari shaklida ham berilishini ko'rsatish, badiiy adabiyotlardan dalillar keltirish bilan isbot qilish imkonini yaratdi.

Bitiruv malakaviy ish metodikasi va manbalari. Tadqiqotning metodologik asoslari bo'lib, frazeologizm tushunchasini mukammal darajada ishlab chiqqan mualliflar: I.G.Galperin, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, N.N.Amosova, I.V.Arnoldlarning stilistika bo'yicha ishlari va qo'llanmalari, hamda tarjimashunoslardan A.Ya.Rojanskiy, Ya.I.Resker, G'.Salomov, Q.Musayevalarning tarjima nazariyasi bo'yicha ko'pgina izlanishlari manba sifatida qo'llanildi.

Nazariy va amaliy ahamiyati. Bajarilgan ilmiy ish tilshunoslik nazariyasi, hamda tilning ba'zi amaliy muommolarini yechish uchun xizmat qiladi va o'zbek tilidan ingliz tiliga asardagi frazeologizmlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Ushbu ilmiy ishning materiallari va xulosalari, bizning nazarimizda, ingliz tili qiyosiy stilistikasining va tarjima nazariyasining ba'zi qirralarini ochishga, muommolarni hal etishga yordam beradi va ular stilistika va tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlarida amaliy jihatdan foydalanish mumkin.

Ushbu kurs ish chet tillarini o'rganadigan, badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan, filologiya fakultetlarida ta'lim oladigan talabalar uchun asqotadi, shuningdek, bu ishni tarjima nazariyasi va amaliyoti, stilistika bo'yicha qo'llanma sifatida ishlatish ham mumkin.

Kurs ishi Kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan badiiy hamda ilmiy adabiyotlar ro'yhatidan tashkil topgan.

I-BOB. TARJIMA- XALQLAR O'RTASIDAGI ALOQA VOSITASI

1.1.Tarjimada muqobillik darajasi

Jahonda biror xalq, millat yoki elat yo'qki o'z qo'shnisi bilan ijtimoiy aloqa qilmaydigan, bir-biridan ilm o'rganmaydigan va moddiy, madaniy aloqalarni yo'lga qo'ymagan. Tarjima -millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Ha, albatta boshqa tilli millat bilan har qanday aloqada o'sha millat tilini tushunishga ehtiyoj sezamiz, bundan ko'rinib turibdiki, tarjimasiz hech qanday ijtimoiy, madaniy aloqa yuzaga kelmaydi. Buning isboti sifatida allomalarimiz qoldirgan merosini keltirib o'tamiz. Bundan ming yillar ilgari ulug' olimlarimiz Ibn Ruid, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, al Beruniy va boshqa shu kabi ajdodlarimiz dunyoga mashhur original asarlarni yaratish bilan birga tarjima ishlari bilan shug'ullanganlar.

Ma'mun akademiyasi – dor ul – Hikmada sharq tarjimonchilik maktabi faoliyat ko'rsatgani tarixdan ma'lum. Unda arab, fors, hind, turk, yahudiy, yunon olimlari birgalikda ish olib borib, ularning tarjimonlik faoliyatiga O'rta Osiyodan brogan olimlar rahbarlik qilganlar.

Mazkur Sharq tarjimonlik maktabi sa'y-harakatlari tufayli antik madaniyat namunalari arab tiliga o'girilib, butun Sharqda mashhurlik topdi. Ayniqsa Aristotel va Platon asrlari faqat Ibn Sino, al Farg'oniy tarjimalari orqali bizgacha yetib kelgan.

Bir necha tillarni bilgan vatandoshimiz alloma Beruniy hind tilidan arabchaga bir qancha kitoblarni tarjima qilgan. Uning maqsadi o'z xalqini ilmga, madaniyatga, ma'rifatga chorlash, qo'shni xalqlardagi durdona asarlar bilan tanishtirish edi. Beruniy asl nusxani buzib tarjima qilganlarni tanqid qildi. Buni o'zining "Hindiston" degan kitobida bir necha bor uqtirib o'tadi.

Munis, Haydar Xorazmiy, Ogahiy, Oybek, Shayxzoda, G'.G'ulom, Mirtemir va boshqa ulug' shoirlar tarjima sohasida o'chmas iz qoldirganlar.

1919-yilda Petrogradda ochilgan “Vsemirnaya literature” (Jahon adabiyoti) nashriyoti Sharq va G’arb adabiyotining yirik namunalarini, shuningdek qo’shni xalqlar adabiyotidagi ko’zga ko’ringan asarlarni rus tiliga tarjima qilib bosishni maqsad qilib , davrning yirik shoir va tarjimonlarini jalb qilindi; A.Blok, V.A.Smirnov, K.N.Batyushkov kabilar.

Rus adabiyotining namoyondasi B.Pasternak ham badiiy tarjimaning ajoyib namunalarini ko’rsatdi. U Yevropa klassiklarining, shu jumladan Uilyam Shekspir va Iogan Volfgang Gyoti asrlarini tarjima qilar ekan, harfma- harf, so’zma-so’z tarjima qilish prinsipiga qarshi chiqdi.

Yuqorida nomlari tilga olingan shoirlaru olimlar asl nusxaning goyaviy mazmuni, uslubi, muqobillik va milliy koloritni saqlashni barcha tarjimonlardan talab qilgan edilar.

Tarjima- bir tildagi matnni boshqa tilda yaratishdan iborat ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko’rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima , ilmiy tarjima va boshqa turlarga bo’linadi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko’ra tafsir, tadbil , sharh kabi ko’rinshlariga ham ega bo’lishi mumkin .Tarjima qadimiy davrlarda turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o’zaro aloqa muloqat ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan .Tilmochlik deb ataladigan og’zaki turi hozirda ham saqlangan.

Tarjimaga aniqroq ta’rif beradigan bo’lsak . Tarjima deb bir tildagi nutq asarini ikkinchi tildagi nutq asariga o’girish, o’zgartirish jarayoniga aytiladi; ushbu jarayonda nutq asaring ma’nosi o’zgarmasdan saqlanib qolishi shart .

Har bir asarni tarjima qilayotib, biz “adekvatlik”(muqobillik) terminidan foydalanamiz. Adekvat (muqobil) tarjima deb asl matnning mazmuninitarjima tilida to’g’ri va aniq berilishiga,kamomadsiz o’girilishiga aytiladi. So’zma-so’z tarjima qilib, adekvat tarjimaga erishib bo’lmaydi. Masalan: How are you? iborasini iborasini so’zma-so’z “Qanday bo’lasiz siz?” deb tarjima qilib bo’lmaydi. Kontekstning mazmuniga qarab, uni quyidagcha tarjima qilamiz:

Ahvollaringiz qalay? Sog'liklaringiz yaxshimi? Ishlaringiz yaxshimi?

Bu variantlardan qay birini muqobil deb hisoblash tarjimonning bilim va malakasiga bog'liq.

Agar ikkala tilning stilistik funksiyasi, grammatik shakli bir-biriga to'g'ri kelsa, u paytda so'zma-so'z tarjima qilish mumkin.

Masalan: I took the letter. Men xat oldim.

Ma'lumki, har bir til og'zaki yoki yozma nutq shaklida mavjud bo'lishi mumkin. AMT va TT nutqning qaysi shaklida qo'llanishiga qarab prof. L.S.Barxudarov tarjimaning quyidagi asosiy turlarini farq qiladi

1) Yozma-yozma tarjima, ya'ni yozma matnning yozma tarjimasi: ikkala til ham - AMT va TT - yozma shaklda qo'llaniladi. Tarjima turlari ichida bu odatda eng ko'p qo'llaniladigan tarjima turidir. Tarjimaning bu turini tarjima qilinayotgan matn xarakteriga qarab, yanada kichikroq guruhlarga bo'lish mumkin. Taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorov ushbu tarjima turida quyidagi guruhlarni farqlaydi:

a) axborot matnlar, turli hujjatlar va maxsus ilmiy matnlar tarjimalari;

b) ijtimoiy-siyosiy, publitsistik adabiyotlar va notiqlar nutqlarining tarjimasi;

v) badiiy adabiyotlar tarjimasi

o'rni va vazifalari kabi muhim masalalar o'rganildi. Adabiyotning taraqqiy darajasidan kelib chiqqan holda turlarga ajratish amalga oshirildi, har bir turning o'ziga xosligini belgilovchi xususiyatlar aniqlandi. Badiiy asarning tarkibiy tuzilishiga e'tibor qaratildi: badiiy shakl va badiiy mazmun tushunchalari qarqlandi, ularning o'zaro munosabatlari tekshirildi; xarakter, fabula, tugun.

2. bir-birlariga ma'no va stilistik funksiya jihatlariodan mos bo'lib (so'z Tarkibi kamdan – kam farq qiladi), laksik tarkib jihatdan farq Farq qiladigan

muqobil variantlar : pigeon's milk // anqoning urig'i; every dog is lion at home // har kim o'z uyida hokim;

Ooriginaldagi iborada mujassamlashgan ma'no va stilistik funksiyani to'la tushunib yetmasdan turib ish ko'rish tarjimada adekvatlikning yaralmay qolishiga olib kelishi mumkin. Iboralarning ko'p ma'noliligi ham tarjimani qiynlashtiradi.

3. soxta muqobil variantlar. Ingliz va o'zbek tillarida yana shunday frazeologik iboralar borki, ularning ma'nolari yuzaki qaraganda, bir-birlariga muqobilday bo'lib tuyuladi-yu, aslida esa ular o'rtasida farq bor. Inglizcha "every cook praises his own broth" iboprasiga o'zbekcha "har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga" iborasi ham yuzaki muqobil variantday bo'lib ko'rinsa ham, aslida ular orasida sezilarli farq bor. Inglizcha iborada, gap, har bir kishining o'zi ega narsasini maqtashi ustida ketsa, ikkinchisida - har bir kishining o'ziga yaqin bo'lgan odamlarini sevishi ustida ketadi. O'zbekcha ibora inglizcha "every bird likes its own nest" (har bir qush o'z uyasini sevadi) iborasiga qismangina, ba'zi matnlarda bu ibora singari har bir kishining o'z kulbasini, ona qishlog'ini, shahrini, vatanini sevishini bildirgandagina muqobil variant bo'la oladi.

Binobarin original va tarjima tilidagi iboralar ma'no va stilistik funksiyalarni chuqur analiz qilib olmasdan turib, ularni bir –birlari orqali tarjima qilish ko'p hollarda originalda mujassamlashgan ma'no va stilistik funksiyaningtarjimada yaralmay qolishiga olib kelishi mumkin.

1.2. Til o'rganishda badiiy asar tarjimasi

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili-alohida "badiiylik, voqelik" unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli zaminiga o'tkazish obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi.

Tarjima jarayonida tarjimon hammavaqt o'z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezoni bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonini o'g'irgan Qutb ("... Nizomiy bolidan holvo pishurdim "). Tarjima nusxa ko'chirish kabi bir ish bo'lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa boldan holva pishiruvchi mohir yozuvchi bo'lish kerakligini aytadi.

Ma'lumki, har bir til og'zaki yoki yozma nutq shaklida mavjud bo'lishi mumkin. AMT va TT nutqning qaysi shaklida qo'llanishiga qarab prof.L.S.Barxudarov tarjimaning quyidagi asosiy turlarini farq qiladi:

1)Yozma- yozma tarjima, ya'ni yozma matnning yozma tarjimasi:ikkala til ham – AMT va TT – yozma shaklda qo'llaniladi. Tarjima turlari ichida bu odatdafa eng ko'p qo'llaniladigan tarjima turidir. Tarjimanig bu turini tarjima qilinayotgan matn xarakteriga qarab, yanada kichikroq guruhlariga bo'lish mumkin.

a) axborot matnlar, turli hujjatlar va maxsus ilmiy matnlar tarjimalari;

b) ijtimoyi-siyosiy, publitsistik adabiyotlar va notiqalar nutqlarining tarjimasi;

v) badiiy adabiyotlar tarjimasi.

2) Og'zaki-og'zaki tarjima, ya'ni og'zaki matnning og'zaki tarjimasi: ikkala til - AMT va TT - og'zaki shaklda qo'llaniladi. Ushbu tarjima turida ikkita xil tarjima

mavjud: ketma-ket tarjima va sinxron tarjima. Ketma-ket tarjima asl matndan (AMTdagi nutqdan) keyin - matn to'la yoki uning ayrim qismlari aytilgandan keyin sodir bo'ladi. Odatda to'xtalish bir necha gaplardan keyin sodir bo'ladi, har bir gapdan keyin to'xtalish esa kamroq uchraydi. Sinxron tarjima asl matn aytilayotgan paytning o'zida amalga oshiriladi. Aniqroq qilib aytganda, sinxron tarjima asosan asl matn bilan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, ammo nutqning ayrim qismlarida sinxron tarjima AMT dagi nutqdan biroz (bir necha so'zgagina) orqada qoladi, yoki AMT dagi nutqqa nisbatan oldinga o'tib ketadi. Sinxron tarjimaning bunday oldinga o'tib ketishi tarjimonning hali aytilmagan nutq qismlarini oldindan payqab ola bilish qobiliyati borligi sababli mumkin bo'lib qoladi.

I

Og'zaki-og'zaki tarjimaning ikkala xili ham - ketma-ket (birin-ketin) va sinxron tarjima - o'ziga xos psixologik qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi: ketma-ket tarjima tarjimondan yaxshi mashq qilingan va tez ishlaydigan xotirani talab etadi, sinxron tarjimada esa bir paytning uzida eshitib-gapirish ko'nikmasi birinchi o'ringa chiqadi. Sinxron tarjima qila bilish uchun maxsus va uzoq payt davom etadigan mashqlar bajarilishi lozim.

3) Yozma-og'zaki tarjima, ya'ni yozma matnning og'zaki tarjimasi: AMT yozma shaklda, TT esa og'zaki shaklda. Tarjimaning bu turida ham ikki xil tarjimani farqlash mumkin: tarjima asl matnni ichidan o'qish bilan bir paytda (xuddi sinxron tarjimadagidek) sodir bo'lishi mumkin yoki ketma-ketlik bilan, butun matnni yoki har bir abzasni o'qib bo'lgandan keyin amalga oshishi mumkin. Yozma-og'zaki tarjimaning birinchi xili "qog'ozga qarab tarjima qilish" (ruschasi "perevod s lista") deb ham ataladi, ikkinchi xili esa "tayyorlanib tarjima qilish" (ruschasi «perevod s podgotovkoy») deb nom olgan. Albatta, bu nom shartli ravishda tushuniladi, chunki bu holda "tayyorgarlik" (asl matnni oldindan o'qib chiqish va tushunib olish) minimal bo'ladi.

4) Og'zaki-yozma tarjima, ya'ni og'zaki matnning yozma tarjimasi: AMT og'zaki shaklda, TT yozma shaklda. Amaliyotda tarjimaning bu turi juda kam uchraydi,

chunki matnni (qo'lda, mashinkada yoki kompyuterda) yozish tezligi og'zaki matnni aytish tezligidan ancha past bo'ladi. Shu sababdan bunday tarjimani amalga oshirishning deyarli iloji bo'lmaydi. Og'zaki-yozma tarjimaning amaliyotda qo'llanishiga yagona misol bo'lib chet tili mashg'ulotlarida uchraydigan mashqlardan bir turi - diktant-tarjima - xizmat qilishi mumkin: og'zaki matn (asl matn) sekinlashtirilib aytiladi («diktant tezligi»da) va bu bilan yozma tarjima qilishga imkon yaratiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tarjimaning to'rtta asosiy turini quyidagi sxemada yaqqol ko'rish mumkin:

Matn tili	AMT	TT
Nutq Shakllari		
	Yozma.	Yozma
	Og'zaki	Og'zaki

1-yozma-yozma tarjima, 2- og'zaki-og'zaki tarjima, 3- og'zaki-yozma tarjima, 4-yozma-og'zaki tarjima

Fanda tarjimaning bevosita va bilvosita turlari ham farq qilinadi. Agar tarjima to'g'ridan-to'g'ri asl nusxa tilidan bajarilgan bo'lsa, bunday tarjima bevosita tarjima deb ataladi. Tarjima asl nusxadan emas, balki boshqa bir til orqali qilingan bo'lsa, bunday tarjimaga bilvosita tarjima deyiladi. Tarjimon asl nusxa tilini yaxshi bilmagani tufayli tarjimani boshqa til yordamida qilishga majbur. Nemis klassigi I.V.Gyotining eng yirik asari “Faust”ni E.Vohidov tomonidan rus tili orqali o'zbek tiliga qilingan tarjimasi bilvosita tarjimaga misol bo'la oladi.

Ma'lumki, tarjima jarayonida asl nusxaning qandaydir nozik tomonlarini buzilishi yoki yo'qolib qolishi muqarrar. Bevosita tarjimada bunday buzilishlar va yo'qolishlar bilvosita tarjimaga nisbatan ancha kam bo'lishi shak- shubhasizdir.

Tarjima san'ati eng mashaqqatli va sharaflil hamda ko'p bilim malaka talab qiladigan ishdur. Tarjimon yuqorida keltirib o'tilgan qoidalarini bilgan holda yana tarjimon tarjima qilish yo'llarini bilmog'i kerak.

1. Ekvivalentlar yordamida tarjima qilish.

2. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish.

3. Kalka yo'li bilan tarjima qilish.

4. Tasviriy yo'l bilan tarjima qilish.

Odatda bir tildagi frazeologik iboralarni ikkinchi tilga ekvivaletlar yordamida tarjima qilish adekvat tarjima yaratishning eng samarali yo'li hisoblanadi, chunki ekvivalentlarda iboralar ma'nolaridan tashqari ularning obrazli asoslari ham bir-biriga o'xshaydi. Bu esa ularning stilistik funktsiya jihatdan bir biriga ko'proq mos bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham tajribali tarjimonlar o'z ishlari davomida ko'proq bu usulni qo'llashga harakat qiladilar.

Biroq ekvivaletlar yordamida tarjima qilinganda ham originaldagi, ham tarjima tilidagi iboralar ma'nolarini, ular o'tab kelayotgan stilistik funktsiyalarni chuqur tushunmasdan qo'llash adekvatlikning yaralmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Quyida endi, bir-birlariga ekvivalent - inglizcha va o'zbekcha frazeologik iboralarni tasniflaymiz va o'z tasnifimizga ikki til frazeologik iboralarning grammatik tuzilishi va semantik belgilarini asos qilib olamiz. Bu xulosalar badiiy tarjima nazariyasining boyishiga, ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylayman.

1. Bir-biriga ma'no, leksik tarkibi, funksiya va son jihatlaridan mos bo'lib, so'z tartibi farq qiladigan ekvivaletlar:

As fat as a pig // cho'chqaday semiz

Ulardan so'z tartibining o'zida bir-birlaridan far qilishi ham tarjimon oldiga ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Ma'no va stilistik funksiya jihatlaridan mos bo'lib (so'z tartibida kamdan-kam mos bo'lsa, sonda ahyon-ahyon farq qiladi), leksik tarkibi jihatidan yuzaki xuddi farq qilganday, aslidaq farq qilmaydigan ekvivalentlar. Bular ikkiga bo'linadi:

1) bir tildagi iborada mavjud bo'lgan ba'zi komponentlar ikkinchi tildagi iborada formal ravishda yo'q, ammo iborani talaffuz etganda o'sha yo'q komponentlar ham ko'zda tutiladi;

Fish begins to stink at the head // Baliq boshidan sasiydi;

The dog bark, but the caravan goes on // It hurar, karvon o'tar.

Ko'rinib turibdiki, bu iboralarning o'zbekcha variantlari inglizcha variantlariga qaraganda qisqaroq, ya'ni o'zbekcha variantlarda mavjud bo'lgan ba'zi komponentlar tushirib qoldirilgan. Lekin o'zbek tilida ham iboralarni talaffuz qilganda o'sha tuishirilib qoldirilgan komponentlar nazarda tutiladi.

3. Bir-birlariga ma'no stilistik funksiya va son jihatdan mos bo'lib (so'z tartibi jihatdan,deyarli har doim farq qiladi), leksik tarkibi jihatdan bitta, ba'zan ikkitadan komponentlari farq qiladigan ekvivalentlar:

As gentle as a lamb // qo'yday yuvvosh;

As harmless as a dove // musichaday beozor;

Bunday ekvivalentlarning ko'pchiligi o'zlari talluqli bo'lgan xalq timsollari bilan bog'liqdir. "as harmless as a dove" iborasini o'zbek tiliga "kabutardek beozor" deb tarjima qilish harfo'rlikka olib kelsa, uni "musichaday beozor" ekvivalenti orqali tarjima qilish adekvatlikni ta'minlaydi.

4. Bir-biriga ma'no va stilistik funksiya jihatlaridan mos bo'lib, leksik tarkibi jihatidan bittadan komponentlari o'xshamaydigan, so'z tartibi va son jihatdan farq qiladigan ekvivalentlar:

to agree like cats and dogs// it mushuk bo'lmoq;

5. Soxta ekvivalentlar. Bir- biriga shakl, leksik tarkib jihatlaridan mos bo'lib, ma'no, stilistik jihatdan farq qiladigan soxta ekvivalentlar:

Dogs day// it kuni

Tillarda soxta ekvivalentlar mavjudligi, bizning fikrimizcha, ko'proq tillarning milliy xarakterga ega ekanligini, xalqlarning iboralarni, maqollarni yaratishda voqea-hodisaga nisbatan mustaqil o'z munosabatini ko'rsatadi.

Bir tildagi frazeologik iboralarni ikkinchi tilga muqobil variantlar yordamida tarjima qilish ham tarjimaning originaldagidek chiqishiga olib keladi. Bunda tarjimonning qiyinchiligi shundaki, u iborani tarjima qilish uchun tarjima tilida mavjud bo'lgan sinonimik iboralardan eng mosini tanlay olishi zarur.

"Every dog is lion at home"// Har kim o'z uyida bek

Biz bilamizki, har milliy tilning boyishi faqatgina shu tilning ichki imkoniyatlari, resurslari evaziga emas, balki shu tilga tashqaridan kelgan materiallar hisobiga ham sodir bo'ladi. Hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillari, boshqa ko'pchilik milliy tillar singari ham ichki, ham tashqi resurslar hisobiga boyigan va sayqallashgan. Chunonchi, o'zbek tiliga feodal, minut, sekund, rejim fransuz tilidan, konsert, opera, studiya italyan tilidan, shuningdek, "sovuq urush", "sovuq qurol", "hayot uchun kurash" iboralari

esa ingliz tilidan kalka yo'li orqali kirib kelgan. Bir tildan ikkinchi tilga kalka, yo'li bilan so'z va so'zbirikma qabul qilish o'zlashtirishning sermahsul yo'llaridan biri bo'lib, bu yo'lning tillar boyishida hissasi nihoyatda katta. Frazeologik iboralarning kalka yo'li bilan tarjima qilinish masalasi o'zbek ilmiy adabiyotida yetarli darajada o'rganilmay kelinmoqda. Qisman, N.M. Shanskiy o'zining "Frazeolgiya sovremennogo russkogo yazika"(snoz.... M 1963,str75) nomli kitobida frazeologizmlarning kalka yo'li bilan tarjima qilinishini ikkiga:

1. Frazeologik kalka

2. Frazeologik yarim kalkalarga bo'ladi.

Frazeologik kalka deganda, tildagi iboraning ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilishni ko'zda tutadiki tarjima qilingan ibora to'la mos keladi. O'zbek tiliga nisbatan rus tilida bu yo'l anch taraqqiy etgan:

"struggle for life" , "to be or not to be" // "борба за жизнь", "быт или не быт". Ularning bir birlariga to'la mos ekanligini quyidagicha izohlaydi:
1) struggle- борба, for- за, life- жизнь; 2) to be- быт, or- или, not to be- не быт.

Frazeologik yarim kalka deganda, u, komponentlarining bir qismi so'zma-so'z tarjima qilinish orqali, boshqa bir qismi esa translatsiya yo'li bilan boshqa tilga o'zlashtirish frazeologik iboralarni ko'zda tutadi:

"Uncle Sam", "yellow-press"// "Дядя Сем", "Желтая пресса"

Frazeologik iboralarning kalka yo'li bilan tarjima qilishning N.M. Shansky tomonidan keltirilgan bu ikki usul tarjimada bo'lgan barcha holatlarni qamrab olmaydi.

Tarjimada asar tarjimasining yana bir yo'li borki, buni tarjimon faqatgina yuqorida qayd etib o'tilgan tarjimaning uch yo'lidan foydalanishning iloji

bo'lmagandagina qo'llashi mumkin. Bunda u yoki bu frazeologik iborani bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda, tarjimon iborani ibora orqali emas, balki uning ma'nosi erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalar yordamida tushuntirish orqali beradi. Bu esa, originaldagi iborada aks etgan obrazlilik va badiiylilikning susayoishiga, ko'proq yo'qolishiga olib keladi:

“to be in a devil of state”// ahvoli juda og'ir bo'lmoq

“Tom Soyerning boshdan kechirganlari” (Mark Tven) asaridan olingan ushbu misolda :

The howling stopped. Tom picked up his ears. “to pick up one's ears” frazeologik iborasi qo'llanilgan bo'lib, bu iboraning o'zbek tilida “quloqni dikkaytirmoq” degan ekvivalentini qo'yib, tasviriy usuldan foydalanilgan, natijada , originaldagi badiiylilik, ta'sirchyanlik susayib qolgan.

II-BOB. TARJIMADA MILLIY KOLORIT MASALALARI

2.2. O'tkir Hoshimov – buyuk o'zbek adibi

“Katta iste'dod avval xalq e'tiborini, keyin mehr- muhabbatini va nihoyat xalq e'tiqodini qozonadi. Aslida shu uch bosqichni har bittasi bir umrga teng.”(snoz ikkieshik orasi 5b 1986y)- deb yozadi adib o'zining mashur “Ikki eshik orasi” romanida.

Hozirgi adabiyotimizning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi va jamiyat arbobi O'tkir Hoshimovdir. U qariyb qirq yildan buyon o'zining ajoyib publististik maqolalari, xikoya, qissa va romanlari bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib ulush qo'shib kelmoqda. O'tkir Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun 1991 yili «O'zbekiston xalq yozuvchisi» qaxriy unvoni berilgan.

Tarjimai hol.

Noyob iste'dod sohibi O'tkir Hoshimov adabiyotga Abdulla Oripov, Omon Muhtorov, Shukur Holmirzayev singari bir qator tengdoshlari bilan birga kirib keldi. O'sha paytda adabiyotimizning Oybek, G'aqur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayhzoda singari ulkan yozuvchilari hayot bo'lib, ularning nazariga tushish hammaga ham nasib qilavermasdi. O'tkir Hoshimov esa Abdulla Qahhordek mashhur san'atkor e'tiborini jalb qilgan yoshlardan edi.

O'tkir Hoshimov 1941 yilning 5 avgustida Toshkent viloyatining Zangiota tumani Do'mbirobod mavzeida tavallud topdi. Bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. 1958 yilda o'rta maktabni bitirib, Toshkent Davlat universiteti jurnalistika bo'limining avval sirtqi, so'ngra kunduzgi bo'limida o'qib, 1964 yilda tugatadi. 1959-1960 yillarda «Temir yo'lchi», 1960 yilda Hozirgi «O'zbekiston ovozi», 1960-1982 yillarda «Toshkent haqiqati», «Toshkent oqshomi», 1982-1983 yillarda G'aqur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1985-1995 yillarda «Sharq yulduzi» jurnaliga bosh muharrir va 1995 yildan 2004 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo'mitasi raisi siqatida qaoliyat ko'rsatib keldi. Hozir «Teatr» jurnaliga muharrirlik qilmoqda.

Faoliyati. O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshladi. 1962 yilda uning "Po'lat chavandozlar" ocherklar to'plami bosilib chiqdi. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarning qo'lga borib tegdi. Uning ilk qissasi "Cho'l Havosi" (1964) adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi. Atoqli adib Abdulla Qahhor bu qissa haqida o'sha paytda juda yaxshi qikr bildirgan. O'tkir Hoshimovning bu qissasiga yozgan oq yo'lida u "Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi", - deb bashorat qilgan edi.(sinozka)

Shu asardan yozuvchining izlanish va mashqlar davri boshlandi. Adib ijodidagi ilk qadamlaridayoq inson ma'naviyati, ruhiyati,hissiyoti, qalb haqiqati tadqiqotchisi siqatida ko'ringan edi.

Roman, qissa, hikoyalarida soʻz sanʼatining azaliy bosh muammosi - inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili ham mavjud edi. Mualliq dolzarb ijtimoiy muammolar talqini bilan yondosh holda koʻp oʻrinlarda personajlar ruhiyatidagi gʻoyat naqis jarayonlarni sanʼatkorona iqoda etardi. "Choʻl havosi", "Muhabbat", "Nigora", "Shamol esaveradi" nomli hikoya va qissalar shundan dalolatdir.

Keyinroq u dolzarb, ijtimoiy muammolar talqiniga koʻproq moyillik bildirib, ayni zamonda bevosita maʼnaviyat, ruhiyat tahliliga bagʻishlangan asarlar ustida ish olib bordi.

Yozuvchining shu yoʻnalishdagi "Qalbingga quloq sol" (1973), ayniqsa, "Bahor qaytmaydi" (1970), "Dunyoning ishlari" (1982) qissalari unga katta shuhrat keltirdi. "Bahor qaytmaydi" (1970) qissasida yozuvchi isteʼdodli, biroq uning qadriga etmagan, ulugʻ maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-maʼnaviy inqirozini sanʼatkorona tahlil etib berdi. Bundan adibning haqiqiy ijod yoʻliga kirganligini koʻramiz.

Oʻtkir Hoshimov asardan-asarga oʻsib bordi. Unda naqosat tuygʻusi behad kuchli. hatto u aldangan odamning maʼnaviy inqirozi, qojeasi, halokati tasvirida ham shu tuygʻusini saqlab qoladi.

Ayniqsa, u yaxshi, oliyjanob, maʼnaviy barkamol odamlar qalbi tahlilida oʻzini nihoyatda erkin his etadi. Uning ijobiy qahramonlari aksari goʻdakday begʻubor, naqosat tuygʻusiga boy, hissiyotli, oʻta taʼsirchan odamlardir. Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning "Dunyoning ishlari" qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati toʻgʻrisidagi oʻziga xos qasidadir. Asardagi Ona - qarzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab oʻzbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir oʻzbek kitobxonida unda oʻz onasining qandaydir qazilatini topgandek boʻladi. Qissadagi "Alla", "Oq marmar, qora marmar" kabi novellalarda onaning qarzandi qalbida qoldirgan armonlari haqida oʻtkir yozilgan. Kishi bularni oʻqir ekan, tasvirdan koʻngli allanechuk boʻlib ketadi.

O'tkir Hoshimovning "Oq kamalak" to'plami ham hayotiy muammolar, to'g'rirog'i, turmush tashvishlari to'g'risida bahs yuritadi.

Yozuvchining birinchi romani - "Nur borki, soya bor" 1977 yili nashr qilindi. Roman chiqishi hamono turli qikr-mulohazalarga sabab bo'ldi. Asarda ko'pgina hayotiy, muhim ahamiyatga ega muammolar

ko'tarilgan edi. Bular azaldan kishilik jamiyatining qalsaqasi bo'lmish "nur" va "soya"lar orasidagi kurash, tortishuv qonida yoritiladi.

Asar o'z davrida adabiy tanqidchilik tomonidan iliq kutib olindi, unga munosib baho berildi, qaqat romanga keskin to'qnashuvlar va kolliziyalar yetishmasligi qayd qilindi. Bundan tashqari, O'tkir Hoshimov O'rta Osiyo respublikalarining qator teatrlarida namoyish qilingan "To'ylar muborak", "Sizdan ugina, bizdan bugina", "Inson sadoqati", "Qatag'on" kabi pyesalarining mualliqidir.

O'tkir Hoshimov E.Heminguey, K.Simonov, A.Kuprin, O.Berggols singari yozuvchilar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Ijodkor 80-yillar o'zbek publististikasi rivojiga salmoqli Hissa qo'shgan adiblardan biridir. Uning odob-ahloq, ma'naviy olam, milliy qadriyatlar, sho'ro davri adolatsizliklarini dadil yoritgan ocherk va teleko'rsatuvlari bu davrning barkamol mevalaridir. Mualliqni endi kundalik dolzarb ijtimoiy masalalar emas, ko'proq azaliy ma'naviy muammolar, inson taqdiri, uning qalbi jumboqlari qiziqtiradi. Bu narsa "Ikki eshik orasi" romanida ayniqsa, ravshan ko'rindi. Bu bilan adib ijodiy yo'lining etuklik bosqichi boshlandi.

Yozuvchining "Ikki eshik orasi" romani ham kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Roman 1986 - yilning eng yaxshi asarlaridan deb topilib, Hamza nomidagi respublika Davlat mukoqotiga sazovor bo'lgandi. "Ikki eshik orasi" romanida o'z davrining muhim muammolari qalamga olindi, o'sha yillar voqea-hodisalariga munosabat bildirildi. Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon

urushi og'irliklarini yelkasida ko'targan, unda mardona g'olib chiqqan kishilardir. Umuman olganda, romanda butun jamiyat kishilarining urush davridagi qidokorligi o'zining badiiy iqodasini topgan. Roman qahramonlaridan biri Muzaqqar - urush davrida muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, 70-yillarga kelib qarovon turmushga erishgan Yohlarning timsoli tarzida beriladi. Romanning sarlavhasidan tortib, deyarli butun mazmunigacha yozuvchi jiddiy qalshaqiy ma'no yuklashga intilgan. Xususan, u "Ikki eshik orasi" deganda inson umrini, ya'ni tug'ilgandan o'lgungacha bosib o'tgan yo'lni ko'zda tutadi. Mualliqning g'oyaviy qalshaqasiga ko'ra bu yo'l juda murakkab va ziddiyatli bo'lib, uni muvaqqaqiyat bilan bosib o'tishi uchun insondan katta matonat, iroda, bilim va jasorat talab qilinadi. Asardagi ko'pchilik qahramonlar, xususan, Oqsoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan huddi shunday jasoratli va ruhan boy kishilar bo'lib, ko'p jihatdan yozuvchining g'oyaviy maqsadini ta'sirchan iqodalashga xizmat qilgan. Mualliq qalshaqasiga ko'ra o'z umrini sharaq bilan bosib o'tmog'i uchun insondan katta matonat va jasorat talab qilinishining sababi shundaki, u o'z hayoti davomida og'ir kurashlar girdobidan, yengib bo'lmas to'siqlardan o'tishga majbur bo'ladi. Asarda xuddi shunday inson hayotining to'siqlari, illatlari siqatida Umar zakonchi, Ra'no, Zuhra kabi shaxslar timsoli yaratilgan bo'lib, ular romandagi kurashlar, to'qnashuvlar, ma'naviy ixtiloqlar keskinligini, tarangligini oshirishga imkon tug'dirgan.

Hayotdagi illatlarga qarshi ayovsiz o't ochish istagi O'tkir Hoshimovni "Ikki eshik orasi" romanidan keyin tadrijiy ravishda hajviyotga murojaat qilishga olib keldi. Oqibatda uning "Ikki karra ikki - besh" qissasi maydonga keldi. Yozuvchining ilgarigi asarlarida ahyon-ahyonda hajviyot uchrab turar edi. "Ikki karra ikki - besh" qissasi esa, ulardan butunicha hajviy uslubda yozilganligi bilan qarq qiladi. Hajviyot tig'ini hayotdagi martabali kishilarga, katta rahbarlarga, xususan, raislarga qaratgani va ularning ma'naviy tubanligini ro'yi-rost qosh qilishga intilgani bilan yozuvchi qissaning ko'p sahiqalari ta'sirchan va qiziqarli bo'lib chiqishiga erishgan. Qaqat dalillash san'atining etishmaganligi va ayniqsa, raisning

o'g'li o'z otasiga qarshi keskin kurashga kirishishi yaxshi asoslanmaganligi sababli qissa 80-yillar o'zbek hajviyotidagi sezilarli hodisa darajasiga ko'tarilmay qoldi.

Yuqorida tilga olingan so'nggi ikki asarida O'tkir Hoshimovning inson ma'naviy olamini, psixologiyasini teran tahlil qilish mahorati ancha oshganligi aniq-ravshan sezilib turadi. Bunda yozuvchi turli-tuman vositalar qatorida qahramonlarning dil izhorlaridan, ichki monologlaridan unumli qoydalangan. Ichki monologlar qo'llashda yuqoridagi asarlarda boshlangan usuldan yozuvchi "Tushda kechgan umrlar" romanida yanada ustalik bilan qoydalandi. "Tushda kechgan umrlar" romanida voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning mash'um "qatag'on" qilish manzaralari, 80-yillarda Aqg'oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo'lgan "o'zbek ishi" mojarolari. Bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan boglashda, ular orasiga "biriktirish nuqtasini" topishda mualliq ichki monologdan unumli qoydalanadi.

Yozuvchi endilikda badiiy asar yaratishda publististika bajarishi lozim bo'lgan vaziqani sekin-asta o'z zimmasidan soqit qilmoqda. U kundalik dolzarb masalalar tahlilini publististikaga berib, e'tiborini o'zining azaliy ishi - inson qalbi jumboqlari tadqiqiga astoydil qaratmoqda. Romandagi Rustam, Shaxnoza kabi qahramonlar ruhiy olamining talqini huddi shunday xulosa chiqarishga imkon beradi. Qaqat roman kompozistiyasining nomukammalligi uning adabiyotda juda katta hodisa darajasiga ko'tarilishiga halaqit bergandek tuyuladi. Kompozistiyadagi tarqoqlik, ayniqsa, Rossiyadan yuborilgan kishilar hayotiga, qaoliyatiga bog'liq voqealarning, taqsilotlarning asosiy syujet chiziqlariga uzviy bog'lab yuborilmaganida yaqqol seziladi.

Shunga qaramay, yozuvchining so'nggi asarlari O'tkir Hoshimovning Hozirgi o'zbek nasridagi sermahsul ijodkorlardan biri darajasiga ko'tarilganligidan guvohlik beradi. O'.Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun 1991 yili «O'zbekiston xalq yozuvchisi» qaxriy unvoni berilgan. U «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan ham taqdirlangan.

2.3. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida uchraydigan maqollar, hikmatli so'zlar tarjimasi va tahlili

Asar haqida. "Rost bilan yolg'onning o'rtasi – to'rt enlik" degan gap bor. Qiziq nega endi oz emas ko'p emas to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi- to'rt enlik ekan. Eshitganinga emas, ko'rganinga ishon...

Odamzotning umri u eshikdan kirib bu eshikdan chiqib ketishdek gap. Ana o'sha ikki eshik orasidagi masofa hayot deb ataladi.

Minglab kitobxonlarning sevimli adibi O'. Hoshimovning ijodiy yo'ling yetuklik bosqichi "Ikki eshik orasi" asari bo'ldi. Roman kitobxonlar orasida iliq kutib olindi. Asar 1982 -1985 –yillarda yozilgan. 1986 - yilda bosilib chiqdi va o'sha yili roman yilning eng yaxshi asarlaridan deb topilib, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgandi. Asar – Muqaddima, yetti qism, qirq yetti bob va xotmadan iborat, yirik ijtimoiy , maishiy-axloqiy roman. Roman qariyb qirq yillik davrni qamrab oladi. Asar uzoq davirlik voqealarni, ko'plab kishilar taqdiri, hayot yo'lini, xilma-xil ijtimoiy, ma'naviy- axloqiy muommolarni o'z ichiga oladi. Roman voqealarining bir uchi 30-yillarning boshlariga, ikkinchi uchi 70-yillarning oxiriga borib taqaladi. Markazida Ikkinchi jahon urishi turadi. Eng mushkul sinovlardan yorug' yuz bilan o'tgan insonlar qismati yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan. Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashahning ma'nosi, insonning insoniylik sha'ni, burchi, ma'suliyati , e'tiqodi, maqsadlarini ko'taradi, kitobxonni ular haqida o'ylashga, bahsga chorlaydi. Qanday yashash va qanday yashamaslik kerak , degan savol asarning yetakchi falsafasi darajasiga ko'tariladi. Bu falsafa qahramonlardan biri – ko'pni ko'rgan Orif oqsoqol tilisan berilgan ikki eshik orasi to'g'risidagi xalqona hikmatda o'z yakunini topadi.

Asarda o'nlab katta kichik obrazlar mavjud. Qimirlagan jon borki, diyarli hammasi davr dard-tashvishi bilan nafas oladi. Raykom sekretari Abdurahmonov, muallim Samadov, Rashid abzi, dyadya Vasya, Parcha opa,

Ochil, Zuhra kelin kabi qahramonlardan tortib asarning markaziy qahramoni Muzaffarga qadar- barchasi murakkab, chigal mushkul taqdir egalari. Yozuvchi yetakchi qahramonlar xususan Muzaffar, uning tuqqan onasi Robiya, otasi Shomurod, o'gay ota Umar zakunchi, sevgilisi Munavvar, "Qora amma", Husan duma, Orif oqsoqol, Bashorarxon, Komil tabib obrazlarini, ularning qalb dunyosini dramasini keng va har taraflama ochadi.

Har bir milliy tilning boyishi, sayqallanishi asosan o'sha tilni tashkil etuvchi ichki resurslar hisobiga sodir bo'ladi. Har bir milliy til o'zining lug'at tarkibi va gramatik qurilishiga ega bo'lib, asosan o'zining ichki taraqqiyot qonun qoidalari asosida rivojlanadi, boyiydi, to'xtovsiz ravishda kamolotga intiladi. Tilning lug'at tarkibi uning asosiy qurilish materiali hisoblanib, tilning rivojlanishi, boyishi shu lug'at tarkibining rivojlanishiga, boyishi va kengayishiga bog'liqlikdir. Lug'at tarkibining kengayishi va rivojlanishida esa frazeologik birliklar(maqollar, hikmatli so'zlar, iboralar, matallar)ning o'rni beqiyosdir. Bizning asosiy tahlil obyekti bo'lgan O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida uchraydigan maqollar, hikmatli so'zlar, iboralarning tarjimasi va tahlilini o'zbek va ingliz tillarida ko'rib chiqamiz.

Frazeologiya – Grek tilidan olingan bo'lib, ikki so'zdan ya'ni –"ifoda", "so'z" lardan tashkil topgan. Frazeologiya tilshunoslikning ajralmas bir qismi bo'lib, u tilning frazeologik birliklarini ham tarixiy, ham zamoniy nuqtayi nazardan o'rganadi. Frazeologiya tilshunoslikning yetarli darajada rivojlanmagan yosh soxalaridan biri bo'lib unga oid ko'pchilik masalalar hozirgacha talay munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu tortishuv va munozaralar frazeologiyani hajm va obyekti masalasiga ham aloqador bo'lib, olimlar hanuzgacha bu masala bo'yicha yagona bir fikrga kela olganlari yo'q. Aytaylik, frazeologiyani hajmi to'g'risidagi masalada xilma - xil fikrlarni uchratish mumkinki, bularning biri ikkinchisini inkor etadi. Masalan, maqollarni, ba'zan esa matallarni ham frazeologizmlar tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida olimlar bayon qilgan fikrlarda hanuzgach bir

xillik yo'q. Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topgan bo'lib, ularning ayrimlari gapda ayrim so'z sifatida ma'lum bir sintaktik vazifada keladi. Oddiy, erkin so'z birikmasida tuzilishi so'zlovchining tashabbusi hamda nutq mavzusiga asoslangan bo'ladi. Frazeologik birliklar esa tilda uning lug'at tarkibida tayyor holda mavjud bo'ladi, gapiruvchi bu yerda tashabbus ko'rsatishga o'rij; masalan "xamir uchidan patir", "toqati toq bo'lmoq". Bularni "Frazeologik qotishmalar" deb atash maqsadga muvofiq chunki, ularning leksik tarkibini umuman o'zgartirib bo'lmaydi. Erkin so'z birikmasida so'lovchi o'zining bilim darajasiga qarab ularni o'rnini almashtirish omonim, sinonim va antonimlardan foydalanishi mumkin. Frazeologik birliklarda, agar uning biror komponentini almashtirish mumkin bo'lgan so'zlar miqdori o'lchangan bo'ladi. Ular frazeologik qotishmalardan farqi shundagi ularning bir komponentini o'zgartirish mumkin. Frazeologik birliklarni o'rinli ishlatish so'zlovchi va tinglovchi kuchi va vaqtini tejashga ham xizmat qiladi.

Akademik V. V. Vinogradov frazeologizmlarni uch turga - 1. Frazeologik qo'shilmalar, 2. Frazeologik butunliklar va 3. Frazeologik chatishmalarga bo'lgan bo'lsa, N. M. Shansky frazeologizmlarni to'rt turga - 1. Frazeologik chatishmalar, 2. Frazeologik butunliklar, 3. Frazeologik qo'shilmalar va 4. Frazeologik iboralarga bo'lib tekshiradi, N. M. Shansky klassifikatsiyasi (snozka N. M. Sh. frazeologiya sovrimeennogo russkogo yazika M. 1963) V. V. Vinogradov klassifikatsiyasidan, so'zsiz, mukammalroq bo'lib, bu klassifikatsiyaga binoan maqollar to'rtinchi tur - frazeologik iboralar tarkibiga kiritiladi.

Ko'pincha ikki tilli, jumladan, "Fransuzcha - ruscha", "Nemischa - ruscha", yuqorida aytib o'tganimiz - "Inglizcha - o'zbekcha" frazeologik lug'atlarni tuzgan leksikograf olimlar ham maqol va matallarni frazeologizmlar tarkibiga kiritish haqidagi fikrlarni yoqlaydilar va ularni o'zlarining frazeologik lug'atlariga kiritadilar.

Biz ham yuqorida nomlari keltirilgan olimlardan ko'pchiligining fikrlariga qo'shilgan holda maqollarni frazeologizmlar tarkibiga kiritish tarafdorimiz

Ilmiy adabiyotda frazeologik birliklarning turg'un so'z birikmalar ekanligi, ularning nutq jarayonida yangidan yaratilmasdan, balki doimo tayyor holda bir xil tarkibda qo'llanilishi olimlar tomonidan bir emas, bir necha martalab ta'kidlangan.

Masalan : Mashaqqatsiz rohat yo'q – A cat in gloves catches no mice .

Maqol – Xalq og'zaki janri bo'lib , qisqa va lo'nda , obrazli , gramatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora chuqur mazmunli gap. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqol – xalqning pand – nasihati, ma'naviy – axloqiy xulosasi , xalq milliy aks – sadosi , til tabiatining hikmatli mezonidir. Maqollarda avlod-ajdodlar- ning hayotiy tajribalari , jamiyatga munosabati , tarixiy , ruhiy holati , etik va este- tik tuyg'ulari , ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida shakllanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Qisqasi – tumushda sinalgan, tugal umumiy ma'no anglatuvchi ixcham jarongdor shaklga kirib qolgan xalq hikmatiga maqol deyiladi.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil, Vatan, mehnat ilmu – hunar , do'stlik , ahillik , donolik , hushyorik , til va nutq madaniyati , sevgi va muhabbat kabi mavzularda shuningdek , salbiy xislatlar xususida rang – barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi , ko'p hollarda qofiyadoshlik , ba'zan ko'pma'nolilik , majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterlangan. Maqolda antiteza hodisasi ko'p uchraydi. (“Kattaga hurmatda bo'l , kichikka izzatda bo'l” kabi)

Turkiy halqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan M.Qoshg'ariy asarida “Kishi olasi ishtin , yilqi olasi tashtin” ; “Odam olasi ichida , mol olasi tashida” kabi.

Maqol ba'zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z , tanbeh, mashoyixlar so'zi , hikmatli maqol , donishmandlar so'zi, otalar so'zi, kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Masalan, Navoiy hazratlarining asrlaridagi ko'plab iboralar ("Tilga e'tiborsiz, elga e'tiborsiz kaboilar)ham maqol darajasida kanh tarqalib ketgan. Maqollarning ijtimoiy- siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta. Ularda asosan to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. O'zbek xalq maqopllarini ilmiy o'rganish va ulardan namunalar keltirish ishiga vengeryalik Herman Vamberi, rossiyalik A.Samoylovich kabi olimlar XIXasr oxiri va XXasr boshlarida katta hissa qo'shdilar.1867-yilda Garmaniyaning Leyptsig shahrida nashr etilgan "Chig'atoy tili darsligi" asariga asosan Xorazmda ommalashgan bir qancha maqollarni kiritgan. Bundan tashqari folklorshunoslikning rivojlanishi va Mansur Afzalov, R. Is'hoqov, Z.Husainova, A.Musoqulov kabi olimlarning izlanishlari natijasida "Dengizdan qatralar", "Qanotli so'zlar", nomli to'plamlar, ikki jildlik "O'zbek xalq maqollari" kitoblari chop etildi.

Maqollarning ijtimoiy- siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta. Matal – narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng istufoda etiladigan nutqiy tarkib. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, aytilmoqchi bo'lgan fikr muddaoni boshqa vositalarni go'ya mutasaddi qilgan holda ifodalaydigan ko'chma ma'noli nutqiy tarkib bo'lib, unda xulosa bo'lmaydi, unga ishora qiladi. Maqolda esa to'la tugallangan fikr- xulosa ifodalanadi.

Maqollarnig ko'pchiligi qadim zamonlardan paydo bo'lib, o'zlarning eski, ibtidoiy holatini tilda asosan saqlab kelganlar. Ular tilning nutqdan – nutqqa, avloddan – avlodga ko'chib yuradigan bilinmas, yaxlit formalariga aylanib ketgan turg'un iboralardir.

Shunday qilib, matallar qatorida maqollarga tilning freazeologik materiali sifatida yondoshamiz.

Quyidagi misollarda ularning farqini ko'rishimiz mumkin.

Maqol

So'zlovchi nodon bo'lsa ,

Tinglovchi dono bo'lishi kerak.

Matal

O'zini aka, echkisini taka demoq.

2.4. Badiiy tarjima shakl va mazmun birligi me'yorini saqlash. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida qo'llanilgan hikmatli so'zlar , iboralar tarjimasida uchraydigan qiyinchiliklar

Frazeologik birliklar, asosan, og'zaki nutqqa xos bo'lib, har xil soha kishilari tomonidan ularning o'zaro muomalalari, hazil-mutoyibalari, munozaralari, do'stona suhbatlari jarayonida yaratiladi va qo'llaniladi. U yoki bu xalq, farzandlari tomonidan yaratilgan va odatda ular nutqida qo'llaniladigan frazeologizmlar asosan shu xalqni qamrab olgan voqea-hodisalar, shart-sharoitlar, shu xalqqa taalluqli bo'lgan har xil qarashlar, urq-odatlar, yurish-turishlarni aks ettiradi, frazeologizmlarning tarkibidagi komponentlar ham, asosan, shu xalq tili lug'at boyligiga taalluqli bo'lgan so'zlardan tashkil topadi.

Frazeologik iboralar hayotning, deyarli, hamma sohalarini qamrab olgan. Ular daladagi dehqonlar, dengizdagi matroslar, qo'y boqib yurgan cho'ponlar, miltiq osgan merganlar, pazandalar, sozandalar, savdogarlar, san'atkorlar, baliqchilar, sayyohlar, qimorbozlar va shu kabi ko'pgina soha egalari tomonidan yaratilgan bo'lib, bu odamlar o'z fikrlarini jonli bayon etish, atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan o'zlarining simpatiya yoki antipatiyalarini bildirish, boshqa soha odamlari yoki bir-birlari bilan o'zaro muomala qilishda nutqlaridagi ta'sirchanlikni oshirishda va nihoyat, har xil topshiriqlar berish, ogohlantirish, po'pisa va ta'na qilishda o'z faoliyatlari holati bilan bog'liq bo'lgan so'z birikmalari, chiroyli metaforalarni topib nutqlarida qo'llay boshlaganlar. Bu ibora va metaforalarning ko'pchiligi kishilarga yoqib qolib, ularning professional lug'at boyligiga aylanib qolganlar. Asta-sekin bu iboralarining ba'zilari yana kengroq ma'no kasb eta

boshlaganlar, ya'ni boshqa muhitlarning ham shu asil holatlarida qo'llanila boshlaganlar. Masalan, har xil sohada odamlari, chunonchi sportchi o'z nutqida sportga oid, san'atkor san'atga oid, baliqchi baliq va baliqchilikka oid iboralardan ko'proq qoydalanadi.

Logan, P. Smit, Frazzeologiya angliyskogo yazyka, (English Idioms, by Logan Pearad Smith, London), M, 1959, str. 172.

Vaqt o'tishi bilan bu iboralarning eng ta'sirchan va xush ohanglari adabiy tilga kirib keladi, ya'ni ular o'zlarining ilgarigi tor qo'llanilish doiralaridan keng qo'llanilish doirasiga ko'chgan holda, boshqa muhitlarning ham xuddi shu xil holatlarida qo'llanila boshlaydi, binobarin, umumxalq tili boyligiga aylanadi. Masalan, ingliz tilidagi; "to be in the same boat" bir qayiqda bo'lmoq. (ya'ni "suzmoq") - "biror kishi bilan bir xil holatda bolmoq" iborasi birinchi bor dengizchilar nutqida paydo bo'lgan bo'lib, uzoq, yillar davomida matroslarning professional iborasi sifatida qo'llanilgan-u, keyin ko'p yillar o'sha umum qo'llanilish doirasiga o'tib, barcha sodda odamlari -nutqining bezagi bo'lib kelgan bo'lsa, o'zbek tilidagi "oshig'i olchi bo'lmoq-ishi o'ngidan kelmoq" iborasi birinchi bor qimorbozlar nutqida paydo bo'lgan. Uzoq vaqtlar o'tishi bilan bu ibora faqatgina qimorbozlar emas, balki boshqa sodda odamlari tomonidan ham yuqorida keltirilgan ma'noda qo'llanila boshlagan, ya'ni umumqo'llanilish doirasiga kirgangan holda, adabiy til boyligiga aylangan.

"Biror ishni ayni vaqtida qilmoq" ma'nosini iqodalaydigan inglizcha "strike -while the iron is hot" iborasi ham, uning o'zbekcha ekvivalenti "temirni qizig'ida bos" iborasi ham adabiy tilga aslida temirchilik kasbi egalari nutqidan kirib kelgan bo'lib, bular ham yuqorida analiz qilingan iboralar kechirgan holatlarning hammasini boshidan kechirgan.

Frazzeologik birliklar asosan milliy xarakterga ega bo'ladi. Har bir xalq farzandi nutqida qo'llanilayotgan ibora o'sha xalq vakillariga yaqin harakatlar, rasm-rusumlar, har xil odatlar, qonun-qoidalar asosida vujudga keladi.

Ko'pgina frazeologik iboralar o'zlari taalluqli bo'lgan xalqlar voqeligini aks ettiradilar. Jumladan, ba'zi frazeologik iboralarning obrazli asoslari o'zlari taalluqli bo'lgan tillarda mavjud harhlardan iborat bo'ladi. Masalan, inglizcha "mind your P's and Q's ! -", "dot your i's and cross your t's I" "fikringni aniqroq bayon et, gapingni bilib gapir "from A to Z - boshdan oyoq" iboralarining obrazli asoslari ingliz alfavitida mavjud bo'lgan harflardan iborat bo'lsa, o'zbekcha "ichini yorsa alif chiqmaslik", "lom (lom-mim) demaslik", "alifhi kaltak deyolmaslik" iboralarining obrazli asoslari ilgari o'zbek xalqi qoydalangan arabcha harflardan iboratdir.

Juda ko'p xalqlar o'z xursandchiliklarini ba'zan bosh kiyimlarini osmonga otish orqali ifodalaganlar. Shu asosida "xursand bo'lmoq", "sevinmoq" ma'nolarini obrazli ifodalashda ingliz tilida "to throw up one's cap (hat)" — "shapkani (shlyapani) yuqoriga otmoq" iborasi paydo bo'lgan bo'lsa, o'zbek tilida "do'ppisini osmonga otmoq" iborasi paydo bo'lganki, inglizcha iborada obrazli asos vazifasini o'tab kelayotgan "cap" (hat) so'zi ingliz xalqi iste'molidagi milliy bosh kiyim bo'lsa, o'zbekcha iborada obrazli asos vaziqasini bajarib kelayotgan "do'ppi" so'zi o'zbek xalqi iste'molidagi milliy bosh kiyimdir.

Inglizcha "to dance to somebody's pipe" (birovning qamish nayiga o'ynamoq iborasida qo'llanilgan "pipe" (qamish nay) so'zi ingliz voqeligini aks ettirsa, shu iborada aks etgan ma'noni aynan anglatadigan o'zbekcha "birovning nog'orasiga o'ynamoq" iborasida qo'llanilgan "nog'ora" so'zi o'zbek voqeligini aks ettiradi, ya'ni "apipe" ingliz xalqining milliy musiqa asbobi "nog'ora" o'zbek xalqining milliy musiqa asbobidir.

Har bir milliy til qaqat o'zigagina xos bo'lgan talay frazeologik iboralarga egaki, bu iboralar o'zlari taalluqli bo'lgan xalqlarning uzoq tarixi, urq-odatları, qonun-qoidalari, ijtimoiy hayoti, siyosiy va axloqiy qarashlari bilan bog'liq. Chunonchi hayotdagi butun ikir- chikirlar til materiallari orqali reallashadi, hayotdagi butun o'zgarishlar til materiali ekanida o'z aksini topadi.

Har bir afarizm , alohida olib qaralganda o'zicha bir tugal asar degan so'zdir. Biz endi ishimizning yakuniy qsmida adib asarida qo'llanilgan hikmatli so'zlar, iboralar va ularning tarjimasi haqida so'z yuritamiz. Hikmatli so'z va ibora nima? Ularning maqoldan farqli jihati nimada, ularning tarjmasida uchraydigan qiyinchiliklar nimada? Keling mana shu savollarga javob topamiz.

Tugal fikrni anglatuvchi , o'tkir mazmunli qisqa va lo'nda ibora , bayt ,jumla hikmatli so'z deyiladi. Ular yalong'ch holda emas, balki voqealar tahlili zahirida, tasvir ichida muallif muallif muddaosining lo'nda ifodfasi, qaymog'i, tarzida "o'z- ozidan", "bexosdan", "favqulotda", "qissadan hissa" tarzida paydo bo'lishi mumkin. Ular muqarrar ravishda tasdiq(tasdiqni tasdiq), inkor(ikorni inkor) hukm , muqoyasa , mubolag'a , kesatiq , piching ,sifatlash , o'xshatish kabilar yotadi.

Xalq maqollaridan farqli ravishda hikmatli so'zlar kelib chiqishi jihatdan ma'lum bir shaxs (yozuvchi, shoir, publisist , faylauf, olim, davlat arbobi , va boshqalar) ga mansub bo'lib, individualligini saqlab qoladi. Hikmatli so'zning mustaqil janr shaklidagi namunalari bilan birga ilmiy falsafiy, tarixiy hamda badiiy asarlar tarkibida uchraydiganlari ham bo'ladi. Ba'zan asar boshdan oyoq hikmatli so'zdan iborat bo'lishi mumkin(Farobiy asarlari). Alisher Navoiyning asarlari hikmatli so'zga boy ("Nazm ul-javohir ", "Arabian", "Mahbub ul-qulub" va b). Sharq xalqlari adabiyoti , jumladan, o'zbek adabiyotida hikmatli so'zning ko'p qismi pand- nasihat , o'git, tanbeh shakllarida bo'ladi .

Maslan: Do'stlik sadoqatga belingni bog'la,

Gina, malomatdan tilingni bog'la."

Xalq jonli tiliga, maqollarga yaqin hikmatli so'z ham ko'p uchraydi. Masalan: " O'qsiz soldat – qilchsiz qin"(Oybek) , "Tishi chiqqan bolaga chaynab bergan osh bo'lmas" (A. Qahhor).

Ba'zi hikmatli so'z quyma holga kelib , ommaviy qo'llanishga o'tgach maqolga aylanib qoladi.

Masalan: Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim. (Alisher Navoiy)

O'zbek xalqi hayotida hikmatli so'zlar muhim o'rin tutadi,binobarin , o'zbek yozuvchilaridan Hamza, A.Qodiriy, G'G'ulom, Oybek, A.Qahhor , M.Shayxzoda , O'.Hoshimov, H.Olimjon kabi so'z ustalari o'z asarlarida hikmatli so'zning zamonaviy namunalarini yaratib, o'zbek adabiy tilinig rivojiga samarali hissa qo'shdilar.

Tarjima hamma vaqt shakl va maznunni bir butun holda qayta tiklashdek ijodiy jarayon bo'lib, u tarjimondan originalning mazmun va g'oya birligini yaratish bilan bir qatorda uning muvofiq shaklini tiklashni talab etadi.

Tarjima shuning uchun ham san'atki, unda shakl va mazmun bir-biridan ajratilgan emas balki bir butun holda qayta yaratiladi....

Ma'lum shakl kasb etgan til materiallari yordamida yuzaga kelgan xilma-xil stilistik priyotlar va badiiy-tasviriy vositalar funksiyalari ham, original sintaksisi (prozalar)da ham vazn va ritmikasi (poeziya va proza) ham tarjimada mazmunga muvofiq ravishda o'z aksini topishi kerak. Biz bu o'rinda ba'zi frazeologik materiallarni (maqol, metal va idiomalar) kuzatamiz. Maqol- xalq idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqealar munosabatining ifodasidir.

Maqol xalq orasida kun sayin tug'ilib turganidek, ota-bobolar so'zi sifatida avlodlardan-avlodlarga meros bo'lib o'tad. Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatdan o'ziga xos xususiyatiga ega. Lekin shunga qaramay, hamma maqollarda ham qandaydir umumiylik bor.

Avvalo maqol zaminida xalq hikmati yotadi “Axmoqqa javob-sukut” deyдилar o‘zbeklar, ruslar esa “дурак ворчит, умный малчит” deb aytadilar. Bu maqolning qanday “hikmati bor?” Axir, bir axmoq haqorat qilaversa, bunday paytda jim turib bo‘ladimi? Xa, jim turib bo‘ladi-deydi maqol. Nodon odam bilan aytishish oson, biroq chidam bilan sukut saqlash har kimning ham qo‘lidan kelmaydi, ikkinchidan, axmoqning haqoratlariga haqorat bilan javob qilish-sharmanda bo‘lish ya‘ni o‘zing ham axmoq bo‘lding demakdir. “Aytuvchi axmoq bo‘lsa, tinglovchi dono kerak” deydi maqol.

Binobarin, axmoqqa qarshi eng oqilona javob sukut qilishdir. Yuqoridagi maqolning mazmuni, hikmati ana shunda.

O‘zbeklarda “Nodonga so‘zlagan essiz so‘zim, o‘likka yig‘lagan essiz ko‘zim” degan maqol bor. Ruslar “дураки учить-что мертвого лечить” deyдилar. Qanchalik zo‘r berib yig‘laganing bilan o‘lgan odam qayta tirilmaganidek, nodon odamga qanchalik aql o‘rgatmagin, u dono bo‘lmaydi. Bu maqolning ruscha muqobili ham xuddi shunday fikrni olg‘a suradi: axmoqqa aql o‘rgatish o‘likni davolash bilan barobar. Ko‘rinadiki, bir qancha oddiy so‘z bilan ta‘bir qilinadigan chuqur axloqiy g‘oya qisqa, ixcham bir qolip shakliga kirgan. Demak, shakl va mazmun ixchamligi maqolga xos belgidir, bu esa shakl bilan mazmun birligi bo‘lib, uni tarjimada me‘yor deyiladi.

Qo‘yida biz O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida uchraydigan hikmatli so‘zlar va maqollar tarjimasi va tahlili xususida so‘z yuritmoqchimiz. O‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida, biz bir qancha qiyinchiliklarga duch keldik. O‘zbekcha-inglizcha lug‘atlardan, frazeologik birliklar tarjimasidan, maqollar jamlangan adabiyotlardan unumli foydalandik. Tarjima ustida ishlar ekanmiz, tarjima san‘ati naqadar cheksiz, shu bilan birga juda qiziqarli ekanligini tan oldik. Ayniqsa, bir millatga xos bo‘lgan so‘z, ibora, maqollar tarjimasi biz uchun yanada maroqli bo‘ldi.

Tarjima sohasiga qo'l urgan olimlarimiz, buyuk tarjimonlarimiz mehnati mashaqqatlarini tushunib yetgandek bo'ldik. Ozbeklar o'rtasida iboralar, maqollar, hikmatli so'zlar tez-tez qo'llanib turishini guvohi o'lganmiz. Savol tug'iladi. Ushbu til birliklari nima uchun og'zaki, yozma nutqimizda tez-tez qo'llaniladi?

Ularda xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy normasi o'z ifodasini topgan. Maqollar mehnatkash xalq ommasining ma'naviy qiyofasi, ideali, orzu - umidi, intilishlari hamda tabiati va jamiyat haqida yuritgan mulohazalarining sintezi, hayot tajribalarining umulashma ifodasidir.

Maqol shaklan qisqa bo'lib, voqelikni yoyiq holda ifoda qila olmaydi. Binobarin, maqollarda voqelikni siqiq va ixcham ifodalaydigan aniq va hayotiy obrazlar mavjudki, ular umumiy mulohazalarning yakunidan kelib chiqqan xulosani ko'chma ma'nolarda belgilash imkonini beradi, "Sen bo'rini ayasang, bo'ri seni talaydi", "Jo'jani kuzda sana". Birinchi maqolda "bo'ri" orqali qonxo'r dushman, yovuz niyatli kishi obrazi gavdalansa, ikkinchi maqolda har bir ishda xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak deyilmoqda. Ba'zan u yoki bu maqol topishmoq singari tuzilgan bo'lib, voqelik qiyos qilish, solishtirish orqali aniqlanadi: "Yoz yomg'iri loy bo'lmas, o'g'ri aslo boy bo'lmas".

1. Chuchvarani xom sanabsan. Jo'jani kuzda sanaymiz. You have built a castle in the air. Don't count your chickens before they are hatched. Ushbu maqol tarjimasida, ingliz tili maqolida chuchvara emas, balki parranda ko'zda tutiladi. Yoki bo'lmasa, havoda qasr qurdirmoq, ya'ni amalga oshmaydigan jarayon xususida so'z boradi.

2. Seni ham oyog'ingni to'rtta qilaylik. Boshini ikkita qilaylik. (Hoshimov O'tkir "Ikki eshik orasi", Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 243-bet)

Let you jump a broomstick. We want you to knot a tie. Bu iborani biz so'zma so'z, to'gridan-to'g'ri tarjima qila olmaymiz, maqolda turmush qurish (uylanish) nazarda tutilmoqda va ingliz tilida bu ibora "to jump a

broomstick” birikmasiga mos keladi. Bu yerda milliy koloritni saqlagan holda ekvivalentlar orqali adekvat tarjimaga erishilgan.

3. Voy, Ranoxonni ochilib ketganini qarang! (“Ikki eshik orasi”, O’tkir Hoshimov, Toshkent G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1989-y, 219-bet)

Oh, Ranoxon is pleasant to look at. Agar bu frazeologik birlikni so’zma-so’z “Voy, Ra’noxon is opened to look at” deb tarjima qilsak, tarjimada adekvatlik, asl ma’no yo’qoladi, shuning uchun tildagi muqobil ekvivalentlardan foydalanamiz. Bu yerda go’zallik, chiroy nazarda tutilgan..

4. Jon omon bo’lsa, mol topiladi³. You can find wealth, if you are healthy. Zamirida katta ma’no va hikmat yotuvchi ushbu o’zbek maqolidagi ba’zi komponentlar ifodalanmasdan, ingliz tilida esa formal ko’rinishga ega bo’lgan holda ma’no va stilistik funksiyalari jihatdan mos ekvivalentlar orqali tarjima qilinadi.

5. Haqiqat osmonda kaliti yerda. All doors are open for everyone. Agar bu hikmatli so’zni “The thruth is in the sky, but the sky is in the land” deb tarjima qilsak, ma’no va stilistik funksiyalarning buzilishiga olib keladi. Tasviriy ifoda yordamida All doors are open for everyone shaklida tarjima qilamiz.

6. Mehr-ko’zda⁴. Out of sight-out of mind. Ikki so’zdan iborat bo’lgan bu hikmatli so’zni na so’zma-so’z, na kalka yo’li orqali tarjima qila olamiz. Faqatgina ingliz tilida mavjud muqobil variantlar orqali tarjima qilamiz. Bunda ikki tilda ham ma’no va stilistik uyg’unlik mavjud.

7. Sovuq xabar. Black news. Bad news. Frazologik birlikda biz soxta ekvivalentlar orqali adekvat tarjimaga erisha olamiz.

8. Suymaganga suykalma. (“Ikki eshik orasi”, O’tkir Hoshimov, Toshkent G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1989-y, 114-bet)

³ Hoshimov O’tkir “Ikki eshik orasi”, Toshkent G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1989-y, 275-bet

⁴ Hoshimov O’tkir “Ikki eshik orasi”, Toshkent G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1989-y, 522-bet

Faults are thick, where love is thin. Bunda tasviriy ifoda yo'li bilan tarjimada adekvalik saqlangan.

9. **Oyning 15i yorug' 15i qarong'i. Every cloud has a silver lining.** Maqolda adikvatlikni saqlash uchun, muqobil variantlar yordamida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maqoldagi har oyda yuz beradigan yorug' va qorong'i tunlar antonimlar sifatida ishlatilib, har bir ishning yaxshi va yomon tarafi ifodalanadi. Bu esa taqqoslanayotgan tilda mavjud "bulutning kumushrang chizig'i" orqali ifodalanadi.

10. **Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi. Unpalatable truth is better than sweet lie.** Bir-biriga ma'no, leksik tarkibi, fuksiya va son jihatdan mos bo'lib so'z tartibi bilan farq qiluvchi ekvivalentlar orqali tarjima qilamiz.

11. **Qanday kunlarga qoldim!⁵ How unpleasant and unexpected unhappy days I faced to.**

12. **Kuydirgan kalladek ishshayishini qara. Look! She is grining like a chashire cat, who has eaten a canary.** Bu maqol o'zbeklar orasida juda tez-tez qo'llanib turiladi. Ingliz tilidagi talqinida esa, "kuydirgan kalla" iborasi o'rniga "mushukka o'xshab tirjaymoq" shaklida tarjima qilinadi. Shu asnoda zikr etib o'tish kerak-ki, ikki tildagi tarjima salbiy holani tasvirlashda xizmat qiladi.

13. **Yaxshi ko'rish ayb emas! Loving is not sin!**

14. **Chuchvarani xom sanabsan!** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 504-bet)

Do not sell the bears skin before you have caught! Muqobil variantlar yordamida tarjimada milliy kolorit saqlanmoqda. "Chuchvara" o'zbek tilidagi taom bo'lsa, ushbu maqolning tarjimasini so'zma-so'z talqin etsak "tutib olinmagan ayiq terisini sotmoq" tarzida bayon etiladi. Ammo tarjimon o'zbek tiliga xos ekvivalent bilan tarjima qilishi lozim hisoblanadi, ya'niki, kitobxon uchun tushunarli bo'lish ko'zda tutiladi.

⁵ Hoshimov O'tkir "Ikki eshik orasi", Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989-y, 275-bet

Birov-birovning ko'ziga cho'p soladi. ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 258-bet)

To give a lemon to someone. Muqobil variantlar yordamida tarjimada o'zbek tilidagi "ko'ziga cho'p solmoq" iborasi, ingliz tilidagi "to give a lemon" iborasiga mos keladi. Har ikki tilda mavjud muqobil variant stilistik jihatdan farq qilsada ma'no jihatdan o'xshash.

15. Yaxshi kelsa-kut, yomon kelsa-yut. Whatever you face, be very patient!

16. Ot o'rnini toy bosar! Like father, like son. Like teacher, like pupil! Bir-biriga ma'no va stilistik funksiya va son jihatdan mos bo'lib, leksik tarkibi jihatdan bitta yoki ikkita komponentlari bilan farq qiladigan ekvivalentlar orqali tarjima yuzaga kelgan. O'zbek tilida ko'proq avlodlar merosi davomiyligi nazarda tutilsa, ingliz tilida esa ustoz-shogirdlik va avlodlar munosabati nazarda tutiladi.

17. Sizsiz o'lib qolaman!⁶ ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 212-bet)

I can not live without you! Bu iborada bir oz burtirish hukmron bo'lib, insonning eng oily his-tuyg'ulari namayon etiladi. Bu stilistika fanida exaggeration, ya'ni burtirish stilistik uslubiga mos keladi.

18. Sadoqat bilan xiyonatning o'rtasi shunchalik yaqinmi?⁷ ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 214-bet)

Is there no distance between faithfulness and treason? Bir-biriga ma'no leksik tarkibi funksiya va son jihatdan mos bo'lib, so'z tartibi farq qiladigan ekvivalentlar yordamida so'zma-so'z tarjima qilingan. Lekin so'z tartibining o'zgarishi ham tarjimaning aslidek bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

⁶ Hoshimov O'tkir "Ikki eshik orasi", Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989-y, 212-bet

⁷ Hoshimov O'tkir "Ikki eshik orasi", Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989-y, 214-bet

19. **Omadi ketganning tovug'i kurk qoladi, omadi kelganning xo'rozi ham tuxum qo'yadi. Misfortunate never comes alone! Nobody can avoid from misfortunate!** Bunda esa so'zma-so'z tarjima xatolikka olib keladi. Shuning uchun yuqoridagi nazariy qarashlarga asoslanib, ingliz tilida mavjud variantlarning mosini qo'yib tarjima qildishga harakat qildim.

20. **Sen kim bo'libsan?** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 238-bet)

Who are you to say this one? Biz bu tarjika da leksik takibi jihatdan farq qiluvchi bu iborada so'zma-so'z tarjima usulidan va soxta ekvivalentlardan foydalandik.

21. **Niyati nima?** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 238-bet)

What is his aim?

22. **Kim o'zi? Men kimmanu, u kim? Who is he to compare with me!**

23. **Sabrning tagi-sariq oltin! Deligance is the mother of success!**

24. **Ikki kemani tutgan g'arq bo'ladi. If you run after two hares, you will catch none. Between two stools you fall to the ground.**

25. **Suv toshsa to'pig'imga chiqmaydi.** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 501-bet)

As cool as cucumber. Milliy koloritni saqlagan holda, bir-biriga stilistik va ma'no jihatdan mos ekvivalentlar orqali tarjima qilingan. "Befarq", "g'amsiz" kishilarga nisbatan o'zbek tilida "to'pig'iga suv chiqmas" iborasi ishlatilsa, ingliz tilida "cool as cucumber" iborasi qo'llaniladi.

26. **Mol egasiga o'xshamasa harom o'ladi**⁸. ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 356-bet)

⁸ Hoshimov O'tkir "Ikki eshik orasi", Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989-y, 356-bet

Like master like man. Soxta muqobil variantlar orqali tarjimada muqobillik saqlangan, ya'ni o'zbek tilidagi maqolda hayvon obrazi orqali insoniy xislatning yoki xarakterning ifodalanishi, ingliz tilida esa inson obrazi nazarda tutiladi. Ular o'xshash ko'rinsada stilistik jihatdan farq qiladi.

27. **Bo'sh qop tik turmas!** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 407-bet)

Empty sack can not stand upright! Ushbu maqol tarjimasini so'zma-so'z amalga oshirish mumkin. Bu maqol ikki tilde bir xil mazmunga ega. Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanida bu frazeologik birliklarning tarjimada to'liq mos kelishi deb yuritiladi.

28. **Obbo! Ja, olasanda!**

Don't exaggerate! Ushbu tarjima teskari (antonimous) tarjimaga misol bo'la oladi.

29. **Ukamning topgani ham, tutgani ham sensan! You are jeweler of my brother!** Soxta muqobil variantlar yordamida tarjima yuzaga kelgan. Bunda o'zbek tilidagi "eng yaqin inson", "yolg'iz farzand" nazarda tutilgan, ingliz tilida esa bu iboraga nisbatan "jeweler" so'zi muqobil bo'la oladi.

30. **Obke, tosh bo'lsayam yeyman! I am hungry as a wolf.**

31. **Tavba! Bunaqangi chiroyli qizni umrim bino bo'lib ko'rmaganman! Oh, my God! I have never seen such a beautiful girl in my life!** Bu yerda ham so'zma-so'z, ham xalq e'tiqodidan kelib chiqib milliy koloridni saqlagan holda tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Tavba – Oh, my God!

Birlikning ikkinchi qismi esa ma'no va stilistik funktsiya jihatlaridan mos bo'lib leksik tarkibi jihatidan yuzaki xuddi farq qilganday, aslida farq qilmaydigan ekvivalentlar yordamida tarjima qilinadi. **I have never seen such a beautiful girl in my life!**

32. **Yulduzi-yuldiziga to'g'ri kelibdi. They are such wonderful pairs!**
Tarjimon bunda faqatgina tasviriy ifoda orqali maqoldagi adikvatlikni saqlab qoladi, biroq bunda aslidagiga nisbatan ta'sirchanlik susaygan. Maqolning erkin ma'nosidan foydalanib tarjima qilingan.

33. **Mehr bilan qahr orasi bir qadam! Misfortunes never come alone!**

34. **“Robiyaning boshi bog'landi” –g'alati gap-a? “Robiya is tiering a knot” –is it very strange expression, is it?**

Bu maqol o'zbek xalqi urf-odatlaridan kelib chiqqan va “turmushga chiqish” nazarda tutiladi. Xuddi shunga mos ravishda ingliz xalqi milliy koloritidan foydalanib, tildagi iboralarning mosini “to be teiring a knot” iborasini qo'yib tarjima qilamiz.

35. **Ot aylanib qozig'ini topadi. Every bird lives its own nest!** Bu maqolda siz tarjimaning muqobil variantlar yordamida amalga oshirilganini kuzatishingiz mumkin. Bu yerda har bir tilning obrazli ifodalari turli xil bo'lsada, ma'no va stilistik funksiyalari o'xshash. Maqol har ikki tilning o'z obrazli ifodalari orqali tasvirlangan.

36. **Kosaga o'n tomchi suv solsang turadi-yu, bir tomchi ortiq tomsa toshib ketadi! The last couple drops out of! There is many a slip between the cup and the lip.**

37. **Yaxshilik ham, yomonlik ham javobsiz qolmaydi.** (“Ikki eshik orasi”, O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 330-bet) **One good turn deserves another!**

38. **Bu dunyo-qaytar dunyo! Scratch my back and I shall scratch yours!**

39. **Asl aynamas, deb shuni aytadida! Cheapest is the dearest!**

40. **Sen shoxida ursang, men bargida yuraman⁹! I was not born yesterday! I am not a spring chicken!**

⁹ Hoshimov O'tkir “Ikki eshik orasi”, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989-y, 239-bet

41. **Shoshmay tur hali! Uy ichig bilan yo'q qilib yubormasam, otamning o'g'li emasman!** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 271-bet)

Wait for me! I promise to punish you! I swear!

42. **Qiz, bir qoshiq suv bilan yutguli.** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 379-bet)

She is a cat's whiskers!

43. **Bir boshga-bir o'lim!** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 363-bet)

Make or break! A man can die but once!

44. **Xom sut emgan banda!** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 363-bet)

One who does not anything?

45. **Qayoqdan kun chiqdi!** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 377-bet)

Every cloud has a silver lining!

46. **Yaramga tuz sepma!** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 418-bet)

Do not add fuel to the fire.

47. **Oqni oq, qorani qora demoq!** ("Ikki eshik orasi", O'tkir Hoshimov, Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1986-y, 49-bet)

Call things by their proper names.

48. **Uzumga bo'ying yetmagandan keyin, puf sassiq ekanda.**¹⁰ (“Ikki eshik orasi”, O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 426-bet)

No sweet without some sweet!

49. **Etni tirnoqdan ayirmoqchimisan? Ot o'rnini toy bosar.** (“Ikki eshik orasi”, O'tkir Hoshimov, Toshkent “O'qituvchi” nashriyoti 1986-y, 432-bet)

As well be hanged for a sheep as for a lamb.

50. **Oshing halol bo'lsa ko'chada ich.** (“Ikki eshik orasi”, O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 521-bet)

You are hohest, go with pride!

51. **Ichagingni boshinga salla qilib ketamiz deb qo'rqitgan.** (“Ikki eshik orasi”, O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 36-bet)

They threatened them like a devil!

52. **U tegirmondan ham butun chiqadi.**¹¹ (“Ikki eshik orasi”, O'tkir Hoshimov, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989-y, 410-bet)

He knows how many beans make five. Ushbu maqolda biz tarjimaning naqadar jozibador va qiziqarli ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Agar biz bunda so'zma- so'z tarjimaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, iboraning asl ma'nosi yo'qolib, tarjimaning buzilishiga olib keladi. O'zbek tilidagi “tegirmondan butun chiqmoq” iborasiga ingliz tilidagi “to know how many

¹⁰ Hoshimov O'tkir “Ikki eshik orasi”, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989-y, 426-bet

¹¹ Hoshimov O'tkir “Ikki eshik orasi”, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989-y, 410-bet

beans make five” iborasini ishlatish mumkin. Tilda mavjud bo’lgan muqobil variantlardan foydalanilgan.

53. **Bo’rini yo’qlasang qulog’i ko’rinar.** (“Ikki eshik orasi”, O’tkir Hoshimov, Toshkent G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1989-y, 280-bet)

Talk of the devil and he will appear. Bu maqolda biz ikkala tilda milliy koloridni saqlagan holda ikki tilda ham o’xshash ma’no beruvchi muqobil variantlar va ekvivalentlar orqali tarjima qilamiz. O’zbek tilidagi “bo’ri” so’ziga, ingliz tilidagi “devil” so’zi ekvivalent sifatida qo’llaniladi. Har ikkala tilda ham bu ikkala obraz qo’rqinchli, yovuz, vahimali tasvirlanadi. Shuning uchun ham biz ekvivalent sifatida olaolamiz.

XULOSA

Ma'naviyat, eng avvalo millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. U ijtimoiy - madaniy filtr vazifasini bajaradi va milliy an'analariga yot, milliylikka putur yetkazuvchi, millatning axloqiy, estetik, falsafiy qarashlarga, imon-e'tiqodiga, adolat va haqiqat to'g'risidagi tasavvurlarga mos kelmaydigan narsalarni qabul qilmaslikka, aksincha, ularni siqib chiqarishga harakat qiladi hamda milliy rivojlanish uchun zarur bo'lgan o'zga xalqlarning yutuqlarini, tajribasini o'zlashtirishga intiladi.

Tarjimon nafaqat xorij tilini, balki o'z tilining grammatikasi, leksikologiyasi, stilistikasini ham mukammal o'rganishi lozim bo'ladi. Asliyatdagi milliy o'ziga xoslikni tarjimada aks ettirish masalasi tarjimashunoslikda artroflicha o'rganilganilgan soha. Milliy o'ziga xoslik deganda ma'lum millatga xos, uning turmush sharoitiga, dunyoqarashiga, madaniyatiga, kiyim-kechagiga, uy-ro'zgor buyumlariga oid tushunchalarni ifodalovchi realiyalar, ya'ni bir xalqqa mansub tushunchalar ko'zda tutiladi. Bunday o'ziga xoslik asar personajining xulq-atvorida, o'y-xayollarida, gapiradigan gaplarida, maqollarda, hazil-huzullarida, qolaversa, asar muallifining voqea hodisalariga munosabati bayonida ham o'z aksini topadi. Shu sababli o'ziga xoslikni tarjimada to'laqonli aks ettirish asarning badiiy, estetik, semantik, stilistik jihatlarini ikkinchi bir tilda to'laqonli qayta yaratish vazifalarini oldinga suradi. Bu tarjimondan tarjima asari yaratilgan tilni chuqur bilishlikni, shu xalqqa mansub bo'lgan milliy o'ziga xosliklarni, dunyoqarashlarni, asarning badiiy estetik ta'sirini ta'minlovchi barcha jihatlarini chuqur anglashni talab qiladi.

Biz bitiruv bitiruv malakaviy ishimizda O'tkir Hoshimov asarlari tarjimasi ustida ishlar ekanmiz, adib o'zbek tili frazeologiyasini mukammal bilishiga, ularni kerakli paytda me'yyor darajasida ishlatganligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Tarjima ustida ishlar ekanmiz, biz so'zma-so'z , adekvat tarjima usulidan ko'proq foydalandik. Biz O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida uchraydigan hikmatli so'zlar va maqollar tarjimasi va tahlili xususida so'z yuritdik. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida, biz bir qancha qiyinchiliklarga duch keldik. O'zbekcha-inglizcha lug'atlardan, frazeologik birliklar tarjimasidan, maqollar jamlangan adabiyotlardan unumli foydalandik. Tarjima ustida ishlar ekanmiz, tarjima san'ati naqadar cheksiz, shu bilan birga juda qiziqarli ekanligini tan oldik. Ayniqsa, bir millatga xos bo'lgan so'z, ibora, maqollar tarjimasida ishlash biz uchun yanada maroqli bo'ldi.

Tarjima sohasiga qo'l urgan olimlarimiz, buyuk tarjimonlarimiz mehnati mashaqqatlarini tushunib yetgandek bo'ldik. Ozbeklar o'rtasida iboralar, maqollar, hikmatli so'zlar tez-tez qo'llanib turishini guvohi bo'ldik, izlanuvchi misolida ilgari hech uchratmagan ibora, atamalarni o'rgandim.

O'ylaymanki, hali bajarilishi lozim bo'lgan masalalar bisyor. Biz til o'rganuvchi talabalar, tarjima sohasini mukammal o'rganishimiz, izlanishimiz, qiyosiy tarjima ustida bosh qotirishimiz lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.** I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavqsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kaqolatlari”, , T, 1997. 137- 138-bet.
- 2.** I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma'naviyat” nashriyoti 2008-y, 55-57-betlar.
- 3.** I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, Toshkent- “O'zbekiston” 2011-y.
- 4.** Hoshimov O'tkir “Ikki eshik orasi”, Toshkent. “O'qituvchi” nashriyoti, 1986-y 3-796-betlar.
- 5.** “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, Davlat milliy nashriyoti, Toshkent-2003, 272-273-330-543-544-betlar.
- 6.** Shomaqsudov. Sh “Ma'nolar maxzani” Sh.Shomurodov, O'zbekiston milliy Davlat nashriyoti 2001-y,
- 7.** Azamatov M. “Hikmatlar xazinası”, Toskent 1982-y,
- 8.** Mirvaliyev S., “O'zbek Adiblari” “Fan” nashriyoti.Toshkent 1993y.
- 9.** Irisqulov M “Tilshunoslikka kirish”, Toshkent 2008-y,
- 10.** Musayev Q “English stylistics”, Toshkent 2003-y
- 11.** Aznaurova Z.“Translation theory and practice” Toshkent 1989-y,
- 12.** Mo'minov O.M. “Ingliz tili leksikologiyasi” Toshkent 2006 y.
- 13.** Salomov G' “Til va tarjima”- T. “Fan” nashriyoti 1996
- 14.** Salomov G' “ Tarjimada me'yor muammosi”- T 1980
- 15.** Salomov G' “Tarjima nazariyasiga kirish”-T. “O'qituvchi” nashriyoti 1978
- 16.** Salomov G' “Adabiy an'ana va badiiy tarjima” –T. “Fan” 1980

- 17.** Belinskiy V.G “Полн. Собр.соч” Т1 М 1954
- 18.** Butayev SH. English-Uzbek Dictionary. Toshkent, “Fan”, 2009.
- 19.** Butayev SH. Ozbekcha-inglizcha lug’at. Toshkent. “Nihol” nashriyoti.2009.
- 20.** Muminov. O.M. Translation. Yozma tarjima.Toshkent.2008.

Foydalanilgan elektron saytlar:

1. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. www.Google.uz
3. [www. yandex.ru](http://www.yandex.ru)

Navoiy davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi IV-kurs talabasi Sh. Husanovning "O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida uchraydigan hikmatli so'zlar va maqollar tarjimasi va tahlili" mavzusida yozgan kurs ishi loyihasiga

TAQRIZ

Bir millatning urf-odatlarini, an'analarini, tarixiy manbaalari haqida boshqa millatga yetkazuvchi vosita albatta-tarjima hisoblanadi. Shuning uchun tarjimondan juda qattiq talab, bilim, ko'nikma talab qilinadi. Bizga ma'lumki, tilni bilgan har qanday shaxs, yaxshi tarjimon bo'la olmasligi mumkin. Mukammal tarjima uchun, tarjimon nafaqat chet tilni yaxshi bilishi, shuningdek, o'zga mamlakat urf-odatlarini, qiziqishlari hamda an'analarini ham bilish ko'zda tutiladi.

Mazkur ishda talaba badiiy asarda uchragan hikmatli so'z va iboralar tarjimasi ustida ishlagan. Ishning Kirish qismida, muallif ishning dolzarblilik darajasi, nazariy, amaliy ahamiyati xususida so'z yuritgan.

Ishning birinchi bobida, talaba tarjimada muqobilik haqida ma'lumot bergan. Ishning ikkinchi bobida, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida uchraydigan maqollar, hikmatli so'zlar tarjimasi va tahlili, badiiy tarjima shakl va mazmun birligi me'yorini saqlash, O'tkir Hoshimovning ushbu asarida qo'llanilgan hikmatli so'zlar, iboralar tarjimasida uchraydigan qiyinchiliklar xususida ma'lumot berishga harakat qilgan.

Muallif ishni kengroq yoritish maqsadida, turli badiiy, nazariy adabiyotlardan unumli foydalangan, tarjima sohasida o'z bilimini oshirishga harakat qilgan. Mazkur kurs ishi loyihasida bir necha juz'iy xatoliklarga yo'l qo'yilgan, ammo bu ishning mazmuniga salbiy ta'siri yo'q.

Ushbu kurs ishi talab darajasida yozilgan bo'lib, uni himoyaga tavsiya etsa bo'ladi.

Ilmiy rahbar:

N.P. Shodmonova

